

Rost, men jahldor odamman. O'lgudek asabim chatoq. Avvaldan shunaqa edim. Tarki odat - amri mahol. Lekin siz meni aqldan ozganga chiqarayotganingiz insofdan emas. Bu kasallik mening zehnimni o'tmaslashtirgani yo'q, aksincha, uni yanayam charxladi. Xususan, eshitish qobiliyatimni yanayam oshirdi. Eh-he, yer tagidan osmon toqigacha har qanday tovushni ilg'ay olaman. Hatto do'zaxdagi faryodlarni ham eshitganman. Qanaqasiga men jinni bo'lay? Yaxshisi, hammasini bir boshdan aytib beray. Siz diqqat bilan eshiting, o'zimni qanday tutishimga, nutqimga ham e'tibor qilib turing-da.

Bu gap kallamga qaysi go'rdan keldi - bilmayman. Lekin shu narsa xayolimni oldiyu, kechayu kunduz oromim yo'qoldi. Ochig'i, bu ishga cholning daxli yo'q edi. Unga nisbatan adovatim ham bo'lmagan. Yaxshi ko'rardim uni. Uyam biron marta meni og'rintirmagan. Uning puliga ko'z olaytirgan emasman. Menimcha, gap uning ko'z qorachiqlarida edi... Ha, shunaqa. Uning bir ko'zi ikkinchisidan ajralib turardi. Xuddi suvdek tiniq va ko'kimtir, xuddi oqish va shaffof parda bilan qoplangandek edi. Ana shu ko'zlarni juda yomon ko'rardim. U menga qaragan paytida qonim gupurib ketardi-ey. Xullas, cholning bu sovuq ko'zlarini umuman ko'rmaslik uchun uni tinchitish fikri menda qachon paydo bo'lgani yodimda yo'q.

Siz esa, meni qip-qizil jinniga chiqarib o'tiribsiz. Telbalar fikrlay olmaydilar-ku! Siz menga sinchiklab qarang-chi. Qarang, men bu ishni qilishdan avval hammasini puxta o'ylab, rejalashtirib, past-balandini ham hisobga olib chiqqanman. Qotillikdan bir hafta oldin men cholga nisbatan shunaqa mehribon bo'lib qolgan edimki, shu paytga qadar unga bunaqa yaxshi muomala qilmaganman. Kechalari, yarim tunda uning eshigini qiya ochib ichkariga mo'raldim. U esa, hech baloni sezmasdi. Eshikni kallam sig'adigan darajada ochardim-da, ichkariga har tomoni bekitilgan sirli fonar nurini bir chiziqda yunaltirardim, keyin esa, kallamni suqib karardim. O'sha holatni siz ham ko'rganingizda o'zingizni tutolmay kulvoradingiz.

Men cholni uyg'otmaslikka harakat qilardim. Boshimni to'shakdagi cholni ko'ra oladigan darajada ichkariga suqish uchun yarim soatcha vaqt ketardi. Xeh, bunaqa shumliklar jinni odamning yetti uxlab tushiga kirmaydi, men sizga aytsam. Kallamni ichkariga olganimdan keyin sekin-asta fonar nurini ocha boshlardim. O'rug'likni uning chaqir ko'zlariga g'oyat ustalik bilan to'g'rilardim. Men bu antiqa mashqlarni roppa-rosa yetta kun davomida, yana deng, qoq yarim tunda olib bordim. Biroq uning ko'zlari har gal yumuq bo'lardi, men esa, cholni emas, uning ana shu sabil qolgur ko'zlarini o'lgudek yomon ko'rardim. Tong otishi bilan hech nima bo'lmaganday cholning yoniga kirib, u bilan apoq-chapoq so'rashardim, uning sog'lig'i, kayfiyati bilan qiziqardim. Ko'rib turibsizki, chol yarim oqshomda qiladigan g'alati ishlarim haqida o'ylab ham ko'rmagan.

Sakkizinchi oqshom men uning eshigini har kungidan kattaroq ochdim. Shu paytga qadar bunchalik tuyg'un bo'lmagandim. Hatto, yuragim ham o'zini sezdirib qo'ymaslik uchun sekin tepayotganday edi. O'ylashimcha, u mening xufiya raftorim haqida na o'ngida, na tushida bilolmasdi. Shu fikr xayolimga kelishi bilan beixtiyor hiringlab yuborsam bo'ladimi? Chol ovozimdan uyg'onib ketdi chamamda, karavotidan sapchib turdi-da, qo'rqqanidan alanglay boshladi. O'zingiz o'ylab ko'ring, bunaqa paytda nima kilish kerak? To'g'ri, menam shartta o'zimni orqaga oldim. O'zimni ko'rsatmaslikka tirishib sekin-asta eshikni o'zimga torta boshladim. Barmoqlarim parda tutqichidan sirg'alib, qattiq ovoz chiqardi. Chol baqirib yubordi: "Kim bu?" Joyimda qotib qoldim, damim ichimga tushib ketdi. Chol yana o'rniga yotishi uchun bir soatlar chamasi qimirlamasdan, jim turdim. Chol xuddi men har oqshom devorga quloq tutib chirilidoq qo'ng'izning ovozi eshitganimdek, karavotida jim o'tirib quloq sola boshladi.

Shu choq uning qattiq uh tortganini eshitdim va bu o'lim oldi xo'rsinig'i ekanini payqadim. Chunki, og'riqdan ham, g'amdan ham bunaqa chuqur oh tortish mumkin emas. Bu nola faqat qo'rquv g'arq etgan yurakning tub-tubidan chiqishi mumkin edi. Men bilaman-da buni. Har gal soat o'n ikkiga bong urganda, mening ham dahshat to'la qalbimdan ana shunday g'ayritabiyy un otilib chiqardi. Shu bois hozir cholning ahvolini tushunib, unga hatto rahmim ham keldi. U ko'zlarini yummasdan to'shakka yonboshlagan paytida ham bu qo'rquv uni tark etmagandi. U o'zini hech narsa bo'lmaganiga ishonirgisi kelar, lekin buning uddasidan chiqa olmasdi. U go'yo shunchaki, kamin mo'rkonida shamol o'ynayapti, sichqonlar uyoqdan-bu yoqqa yuguryapti, deya o'zini chalg'itishga urinardi. Biroq bularning hech biri naf bermayotgani aniq edi. Chunki, qora zulmat chodrasiga o'ralib kelgan ajal allaqachon o'z qurboni uzra ko'lankasini tashlab ulgurgandi.

Men uni uzoq kuzatib turdim, hech narsa eshitilmasdi. Shunda men fonarni yoqib judayam kichkina nur tolasini ehtiyotkorlik bilan uning qushnikiga o'xshash ko'zlarga to'g'riladim.

U mudhish ko'kimtir ko'zlarini katta-katta ochib o'rgimchak to'ridek ingichka nur tolasiga tikilarkan, qorachiqlarida g'azabga o'xshash alomat ko'rdim. Uning meni asabimga mislsiz azob beradigan nigohlariga ko'zim tushishi bilan miyamning suyaklariga qadar muzlab ketdim: ayni paytda men cholni ham, uning dahshatga belangan yuzini ham ko'rolmasdim, chunki shu'lani uning mal'un ko'zlariga o'nglab turardim xolos.

Shu choq qulog'imga allanechuk tushuniksiz, xuddi paxtaga o'ralgan soatning chiqillashiga o'xshagan tovush o'qtin-o'qtin chalina boshladi. Bu ohang menga tanish edi. Cholning yuragi shunday tepardi. Bu ovoz urush nog'orasi askarni junbushga keltirgani kabi mening ham jazavamni qo'zg'adi.

Biroq men o'zimni tutganicha yashirinib turdim. Deyarli nafas olmasdim, qanday qilib bo'lmasin nurni cholning ko'zidan siljitmaslikka harakat qilardim. Bu paytda esa uning la'nati yuragi borgan sari qattiqroq ura boshladi. Qariya bemisl vahima izmida edi. Yurak tablining takatumi esa tobora balandlab borardi. Aytдим-ku sizga, asabim juda chatoq. Sokin tunning o'lik sukunatini tilkalayotgan bu yovvoyi sas meni qanchalik noqulay ahvolga solib qo'yganini tasavvur qila olasizmi? Shunday bo'lsa-da, bir necha daqiqa men o'zimni harakatsiz tutib turishga kuch topa oldim. Yurak talotumi kuchayaverdi. Uning yuragi ortiqcha bardosh berolmaydi, deb o'ylovdim.

Shu choq yana bir o'ytkir o'y miyamni tilib o'tdi: qo'shni eshita-ya? Cholning kuni bitgandi. Quloqni qomatga keltirib qichqirgancha, fonarni bor bo'yicha ochib, xonaga otilib kirdim. Chol esa, bir marta, faqat bir martagina ingray oldi, xolos. Men uni sudrab pol ustidagi qalin to'shak ustiga olib kelib yotqizdim. O'zimcha, mamnun iljayib qo'ydim. Hammasi risoladagidek ketayotgandi. Daqiqalar ortidan daqiqalar o'tib borar, uning yuragi zaifgina urib turardi. Bu ovoz endi devorning narigi tomoniga eshitilmasdi. Nihoyat to'xtadi. Chol o'ldi. Men uning ustidagi ko'rpani ochib jasadni ko'zdan kechirdim: chol haqiqatan ham o'lib yotardi. Qo'limni uzoq vaqt ko'ksiga qo'yib turdim - yurak urmasdi. Uning manfur ko'zlari endi meni hech qachon bezovta qilmaydi.

Agar siz meni haliyam jinni deb uylayotgan bo'lsangiz, o'likni qanday qilib saranjomlaganimini eshitsangiz, bu fikringizdan tamoman voz kechasiz. Tun yarmidan oqqandi, men esa fursatni boy bermay, ehtiyotkorona ishga kirishdim. Uch dona pol taxtasini ko'chirib oldim-da, jasadni polning tagiga joyladim. Keyin esa, yana avvalgidek taxtalarni joy-joyiga mixlab qo'ydim. Hech kim oddiy ko'z bilan hech narsani payqay olmasdi.

Soat tonggi to'rtga yaqinlashib qolgan bo'lsa-da, hali kechasiga o'xshardi. Qo'ng'iroq to'rtinchi bor jom chalganida, ko'cha eshigi taqilladi. Hech narsa bo'lmagandek, borib eshikni ochdim, nimadan qo'rqqaman. Uch nafar politsiya xodimi o'zini tanishtirib

This is not registered version of TotalDocConverter

ichkuni katisga! O'z zimni yamni kechasi o'zning xonamizdan ajabtovur qichqiriqni eshitib, qandaydir noxushlik yuz berganligini gumon qilgan va politsiya uchastkasiga xabar bergan ekan.

Men miyig'imda kulimsiradim. Nimaga qo'rqar ekanman? Politsiyachilarga kechasi yomon tush ko'rsam dod solish odatim borligini aytdim. Chol hozircha dam olish uchun qishloqqa ketganini tushuntirdim. Xonalarni ko'rsatdim. Mana, istagan yeringizni qarang, ko'ring, dedim. Keyin ularni cholning xonasiga olib kirdim, boyliklarini ko'rsatdim. Mana, hammasi bus-butunicha turibdi. Hatto, ularni xushmuomalalik bilan stulga o'tirishga da'vat etdim. Charchab ketgan-da, bechoralar. Men o'zimni mutlaqo g'olib sanardim. O'zim o'tirgan stul boyagina sug'urilib qayta mixlangan taxtalar ustiga qo'yilgandi.

Ular mendan mamnun edilar. O'zimni juda bemalol va xotirjam tutayotgandim. Har bir savolga hazil-huzul bilan javob qaytardim. Shunda ular o'zaro gaplasha ketishdi. Biroq ko'p o'tmay rangim oqara boshlaganini, kutilmagan mehmonlarning tezroq ketishini istayotganimni sezdim. Boshim og'rib, qulog'im ostida qandaydir ovoz shang'illay boshladi. Ular hali-veri turay deyishmasdi.

Boyagi tovush bo'lsa qulog'im tagida tobora aniqroq va qattiqroq eshitila boshladi.

Bundan o'zimni biroz yo'qotib qo'ydim, biroq nutqim haliyam ravon edi. Ovoz esa kuchayib kelaverdi, nima qilishim kerak? Tovush juda yaqindan, o'qtin-o'qtin, xuddi paxtaga o'ralgan soatning chiqillashi kabi eshitilardi. Men bu ovozdand bo'g'ilib ketdim. Politsiyachilar bo'lsa buni eshita olishmasdi.

Betoqat bo'lib ketdim, o'rnimdan sapchib turdim-da, nimalarnidir o'zimcha g'oldiray boshladim - ovoz kuchayaverdi. Anavilar nega ketmayapti? U yoqdan-bu yoqqa bezovtalanib borib kelaverdim. Mehmonlar meni xavotirga solib qo'yishgandi. Ovozning o'chgur ovoz esa, varanglab borayotir. E Xudo! Nima qilishim kerak? A'zoi badanimni ter bosdi, o'z-o'zimcha so'kina boshladim. Mening qurbonim qo'nim topgan pol ustida turgan stulni asabiy aylantiraman, uyoq-buyoqqa siljitib, go'yoki, shu bilan la'nati tovushni tinchitmoqchi bo'laman - u esa battar avjiga minadi. Balandlab boraverdi, boraverdi, boraverdi... Mehmonlar esa, hech gap bo'lmagandek o'zlaricha gurunglashib o'tiraverdilar. Nahotki, ularga eshitilmayapti? Yo'q, yo'q, o, parvardigori olam! Ular eshitishgan, bilishadi, shunchaki, mening qo'rqayotganimni ko'rib, kalaka qilishyapti. Menga o'sha payti shunday tuyulgandi, haliyam shunday tuyuladi. Nima bo'lsa, bo'ldi - shu azobdan qutulsam bas. Ularning masxaraomuz tirjayishiga ortiqcha toqat qilolmayman. Bu kinoyali tabassumlarga boshqa chidolmayman. Agar hozir qichqirib yubormasam, aniq o'laman. O'h la'nati ovoz, qulog'imni teshib yuboradi hozir.

- Vahshiylar, - deya baqirdim o'zimni tutolmay, - bo'ldi, bas, yetar!!! Tan olaman, men o'ldirdim uni, men! Mana, taxtalarni ko'chirib oling! Ha, xuddi shu yerda. Uning yuragi tinimsiz uryapti, uning yuragi meni tinch qo'ymayapti!!!